

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**“Gidrotexnika qurilishi” fakulteti  
“Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi” kafedrasи**

***Mavzu: Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalashda,  $H_0$  proyeksiyalar tekisligida to'g'ri chiziqlarning o'zaro joylashuvi. Tekislikning  $H_0$  proyeksiyalar tekisligida berilishi.  $H_0$  proyeksiyalar tekisligida tekislikning asosiy chiziqlari.***

Ma'ruzachi, PhD

J.A.Qosimov




Mavzu:

Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalashda,  $H_0$  proyeksiyalar tekisligida to'g'ri chiziqlarning o'zaro joylashuvi. Tekislikning  $H_0$  proyeksiyalar tekisligida berilishi.  $H_0$  proyeksiyalar tekisligida tekislikning asosiy chiziqlari.

$H_0$  proyeksiyalar tekisligida ikki to'g'ri chiziq.

Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalash usulida ham ikki to'g'ri chiziq o'zaro parallel, kesuvchi yoki uchrashmas bo'ladi.

**Parallel to'g'ri chiziqlar.** Fazodagi parallel to'g'ri chiziqlarning  $H_0$  proyeksiyalar tekisligidagi proyeksiyalar ham o'zaro parallel bo'ladi. Ularning qiyalik va intervallari teng. Nuqtalarning son belgilari esa bir tomonga qarab ortib boradi.(1.1-rasm)  $A'_3$   $B'_{10}$  va  $C'_1$   $D'_{8}$  to'g'ri chiziqlar o'zaro parallel, chunki ularning intervallari o'zaro teng, nuqtalarning son belgilari bir tomonga qarab ortib boruvchidir.





1.1-rasm

## O'zaro kesishuvchi to'g'ri chiziqlar.

Fazoda ikki to'g'ri chiziq o'zaro kesishuvchi bo'lса, (1.2-rasm) ularning  $H_0$  proyeksiyalar tekisligidagi proyeksiyalarini kesishish nuqtasining son belgisi ikkala to'g'ri chiziq uchun ham bir xil bo'ladi. O'zaro kesishuvchi to'g'ri chiziqlarning intervali va qiyaliklari har xil bo'lishi mumkin.

1.3-rasm



1.2-rasm

## Uchrashmas to'g'ri chiziqlar.

Fazodagi uchrashmas to'g'ri chiziqlarning  $H_0$  proyeksiyalar tekisligidagi proyeksiyalari kesishgandek tasvirlangani bilan ularning kesishish nuqtalarining sonli belgilari turlicha bo'ladi. (1.3-rasm) Intervallari va qiyaliklari bir xil, yo'nalishlari teskari bo'lgan uchrashmas to'g'ri chiziqlar proyeksiyalari o'zaro parallel bo'ladi.

Tekisliklarning  $H_0$  proyeksiyalar tekisligida berilishi.

Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalash usulida ham tekisliklar asosan quyidagidek beriladi:

1. Bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan sonli belgilari ko'rsatilgan uchta nuqtaning proyeksiyalari orqali (1.4-rasm)
2. Bir to'g'ri chiziq va unda yotmaydigan bitta nuqtaning sonli belgisi ko'rsatilgan proyeksiyasi orqali (1.5-rasm)

$A'_4$

$B'_6$

$C'_1$  o

$H_0$



1.4-rasm

$C'_6$

$A'_2$


$B'_5$

$H_0$




1.5-rasm

3. Sonli belgilari ko'rsatilgan ikki o'zaro parallel to'g'ri chiziqning proyeksiyasini orqali (1.6-rasm)




4. Sonli belgilari ko'rsatilgan kesishuvchi ikki to'g'ri chiziqning proyeksiyalari orqali (1.7-rasm)



5. Qiyalik va boshlang'ich nuqtalari ko'rsatilgan parallel ikki to'g'ri chiziqning proyeksiyalari orqali (1.8-rasm)


6. Qiyaligi ko'rsatilgan va umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqning proyeksiyasi orqali (1.9-rasm)

7. Nishab qiyaligi ko'rsatilgan va gorizontal to'g'ri chiziq proyeksiyasi orqali (1.10-rasm)




1.8-rasm

1.9-rasm




1.10-rasm




## $H_0$ proyeksiyalar tekisligida tekislikning gorizontal chiziqlarini yasash.

Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalshda turli metrik va pozision masalalar yechishda tekisliklarning gorizontal to'g'ri chiziqlarini o'tkazish katta ahamiyatga egadir.

1.11-rasmda  $A(A'_{13})$ ,  $B(B'_{19})$  va  $C(C'_{10})$  nuqtalar proyeksiyalari orqali uchburchak tekisligi berilgan. Uchburchak tekisligining  $A(A'_{13})$  nuqtasidan gorizontal to'g'ri chiziq,  $B(B'_{19})$  nuqtasidan esa eng katta qiyalik chizig'ini o'tkazish kerak bo'lisin. Buning uchun uchburchak tekisligida belgilarning farqi katta bo'lgan tomon  $BC(B'_{19} C'_{10})$  ni darajalaymiz. Natijada  $10'$ ,  $12'$ ,  $13'$ , ..... nuqtalarni aniqlaymiz.  $A'_{13}$  va  $13'$  nuqtalar orqali o'tkazilgan to'g'ri chiziq tekislik gorizontalining proyeksiyasidir.  $B'_{19}$  nuqtadan  $A'_{13} 13'$  ga perpendikulyar tushurib,  $D'_{13}$  nuqtani yasaymiz.  $B'_{19} D'_{13}$  to'g'ri chiziq ABC uchburchak tekisligi eng katta qiyalik chizig'ining proyeksiyasidir.




1.11-rasm



1.12-rasm


1.13-rasmda tekislik parallel ikki  $a(a')$  va  $b(b')$  to'g'ri chiziq boshlang'ich nuqtalarining  $A'_{10}$  va  $B'_{8}$  proyeksiyalari va  $i = 1 : 2$  qiyaliklari orqali berilgan. Ma'lumki interval qiyalikning teskari nisbatiga teng. Shuning uchun  $i = 1 : 2$  bo'lidan  $i = 1 : i = 2$  m interval yordamida tekislikning to'g'ri chiziqlari darajalanadi. So'ngra sonli belgilari bir bo'lgan nuqtalar orqali gorizontal chiziqlar proyeksiyalari o'tkaziladi.

1.12-rasmda tekislik  $AB (A'_1 B'_6)$  va  $CD (C'_0 D'_5)$  sonli belgilari ko'rsatilgan ikki o'zaro parallel to'g'ri chiziqlarning proyeksiyalari orqali berilgan. Bu tekislikning gorizontal chizig'i proyeksiyasini o'tkazish uchun tekislikning to'g'ri chiziqlari darajalanadi. So'ngra sonli belgilari bir hil bo'lgan nuqtalar orqali gorizontal chiziqlar proyeksiyalari o'tkaziladi.



1.13-rasm

1.14 - rasmda nuqtalarning sonli belgilari ko'rsatilgan kesishuvchi ikki to'g'ri chiziq kesmalarining proyeksiyalari orqali tekislik berilgan va shu tekislik gorizontal chiziqlarining proyeksiyalari h' ning ko'rsatilgan. Yasash yo'lini chizmadan tushunib olish qiyin emas.




1.14-rasm

## Tekislikning $H_0$ proyeksiyalar tekisligidagi izini yasash.


Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalash usulida  $P$  tekislikning  $H_0$  tekislik bilan kesishish chizig'i *tekislikning asosiy izi* deyiladi.

Masalan,  $A(A'_1)$ ,  $B(B'_0)$  va  $C(C'_3)$  nuqtalar orqali umumiyl vaziyatda uchburchak tekisligining  $P_H$  izini yasashni ko'rib chiqaylik. (1.15-rasm) Buning uchun umumiyl vaziyatda berilgan ABC ( $A'_1 B'_6 C'_3$ ) tekislikning AB ( $A'_1 B'_6$ ) tomoni darajalanib, uning gorizontal chiziqlarining proyeksiyalari o'tkaziladi.  $A'_1 B'_6$  tomonning davomida bir interval ajratib nolinchi belgili nuqta yasaladi. So'ngra u nuqta orqali tekislikning  $P_H$  izini  $P_H // h'$  qilib o'tkaziladi.



1.15-rasm

1.16 – rasmda esa, parallel ikki  $a(a'_2)$  va  $b(b'_3)$  gorizontal chiziqlar proyeksiyalari orqali ifadalangan tekislikning  $P_H$  izini yasash ko'rsatilgan. Bunda  $P_H$  izini yasash uchun  $P$  tekislikning gorizontal chiziqlariga perpendikulyar qilib  $P_i$  qiyalik masshtab chizig'i o'tkaziladi. So'ngra  $P$  tekislikning intervali  $l = 32$  kesma yordamida 1,0 nuqtalar yasalib, ular orqali gorizontal chiziqlarning proyeksiyalari o'tkaziladi. Nolinchi gorizontal chiziq tekislikning  $P_H$  izini ifodalaydi.



1.16-rasm

$ABC(A'_4 B'_9 C'_2)$  uchburchakning qiyalik masshtabi  $P_i$  va  $H_0$  tekislikdagi izi 1.17 – rasmda yasalgan.  $ABC(A'_4 B'_9 C'_2)$  uchburchakning gorizontal chiziqlarini profil usuli bilan yasaymiz.


### *Yasash algoritmi*

1. Buning uchun  $BC(B'_9 C'_2)$  tomonga parallel qilib ixtiyoriy chiziq o'tkaziladi. Bu chiziqni nolinchi chiziq deb qabul qilamiz. Unga parallel qilib orasi chiziqli masshtab birligiga teng bo'lgan masofada 1, 2, 3 chiziqlarni o'tkazamiz. Bu chiziqlarga  $C(C'_2)$  va  $B(B'_9)$  nuqtalardan perpendikulyar chiqarib  $B C = BC$  kesmani yasaymiz.  $B C$  kesma 4-chiziq bilan A nuqtada kesishadi. Bu nuqtani  $BC(B'_9 C'_2)$  ga proyeksiyalab  $A(A'_4)$  bilan tutashtirilsa, uchburchakning  $h$  (4) gorizontal chizig'inining proyeksiyasi hosil bo'ladi. Gorizontal chiziqlarning bunday yasalishi *profil* usul deb ataladi.

2.  $h$  gorizontalga perpendikulyar qilib tekislikning  $P_i$  qiyalik masshtabi chizig'i o'tkaziladi.

3. Tekislikning intervalini aniqlash uchun 3 va 2 gorizontal chiziqlarning proyeksiyalarini o'tkazib  $P_i$  da  $4 \cdot 3 = 3 \cdot 2 = 2 \cdot 1 = 10$  kesmalar qo'yiladi.

4.  $P_i$  ning 0 nuqtasidan o'nga perpendikulyar qilib tekislikning nolinchi gorizontal chizig'i yoki  $P_H$  izi yasaladi.



1.16-rasm

**ETIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT**